К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI Norov Murodjon Maxmudovich	1336
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR..... Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	1342
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI..... Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	1351
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	1354
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li	1360
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	1365
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI Jalalova Dildora Jamolovna	1371
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA..... Karshieva Marjona Alisher kizi	1375
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI Qurbonova Malika Ahmad qizi	1380
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI Uzoqov Farhod G'afforovich	1384
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI.... Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	1388
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI..... Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	1392
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	1396
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI Muyassarzoda Fayziyeva	1402
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeimedova Yayra Atxamovna	1408
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI..... Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	1414
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR..... Zakirova Oisha	1425
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	1431
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI..... Nuraliyeva B.	1437



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODELI.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
РЕКЛАМА ХИЗМАТЛАРИ BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQUARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruz Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdurkarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivoxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQUARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI	1657
Nizamov Xusniddin Fazliddinovich	



SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	1663
Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	1670
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR.....	1674
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ.....	1678
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOBBLAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHATLARI.....	1684
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1690
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ВАЛЮТНЫМИ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	1695
Тугалов Бобур Қаршибой угли	
DYUZDO SPORTIDA JAROHATLAR PROFILAKTIKASI VA TIBBIY TIKLANISH USULLARINING SAMARADORLIGI.....	1699
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
HAVO TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVCHI TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA UNDAGI MUOMMOLAR.....	1703
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
HUDUDIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION SIYOSAT MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI MODELI	1709
G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА.....	1716
Юлчиев Ойбек Улуғбек ўғли	
TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA XORIJIY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH YO'LLARI.....	1723
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	1731
Isroilov Dilshodbek Rustamovich, Isroilova Odina Rustambek qizi	



YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH



Isroilov Dilshodbek Rustamovich

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bo'lim boshlig'i
ORCID: 0009-0002-6336-2239



Isroilova Odina Rustambek qizi

Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi
ORCID: 0009-0005-6325-2701

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida kichik biznes uchun yaratilayotgan iqtisodiy, ekologik va institutsional imkoniyatlar chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot davomida muallif o'tish davriga xos iqtisodiy o'zgarishlar, ekologik talablar hamda tartibga soluvchi mexanizmlar ta'sirini inobatga olgan holda, kichik biznes subyektlarining yangi bozor segmentlarida faol ishtirok etish imkoniyatlarini asoslab beradi. Maqolada xorijiy tajribalar va milliy sharoitlarning qiyosiy tahliliga tayangan holda, kichik biznesni yashil iqtisodiyot talablariga moslashtirishga qaratilgan amaliy mexanizmlar ilmiy yangilik sifatida ilgari surilgan. Shuningdek, muallifning individual yondashuvi sifatida kichik biznes subyektlari faoliyati uchun qulay institutsional muhitni shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi. Xulosa o'rnida yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlovchi omil, balki kichik biznesning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi strategik yo'nalish ekanligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, kichik biznes, barqaror rivojlanish, ekotizim, investitsiya muhiti, bozor imkoniyatlari, institutsional islohotlar.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the economic, environmental, and institutional opportunities emerging for small businesses during the transition to a green economy. The author substantiates the potential of small business entities to engage in newly forming market segments, taking into account the specific economic and regulatory transformations of this transition period. Based on a comparative study of foreign experience and national conditions, the article proposes practical mechanisms for adapting local entrepreneurship to the requirements of the green economy, which constitutes the scientific novelty of the research. The author's individual approach emphasizes the importance of establishing a favorable institutional environment for small business activities. The study concludes that the green economy serves not only as a driver of environmental sustainability but also as a strategic direction for the sustainable development of small businesses.

Key words: green economy, small business, sustainable development, ecosystem, investment environment, market opportunities, institutional reforms.



Аннотация. В данной статье всесторонне проанализированы экономические, экологические и институциональные возможности, создаваемые для малого бизнеса в процессе перехода к «зеленой» экономике. Автор, учитывая специфику текущего этапа экономических и институциональных преобразований, обосновывает активное участие субъектов малого предпринимательства в формирующихся рыночных сегментах. На основе анализа зарубежного опыта и национальных условий предложены практические механизмы адаптации малого бизнеса к требованиям «зеленой» экономики, что составляет научную новизну исследования. Индивидуальный подход автора заключается в акцентировании необходимости формирования благоприятной институциональной среды для субъектов малого бизнеса. В заключение отмечено, что «зеленая» экономика выступает не только фактором экологической устойчивости, но и важным направлением развития малого предпринимательства.

Ключевые слова: зелёная экономика, малый бизнес, устойчивое развитие, экосистема, инвестиционная среда, рыночные возможности, институциональные реформы.

KIRISH

Bugungi global iqtisodiy taraqqiyot sharoitida ekologik barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot tushunchasi nafaqat ilmiy doiralar, balki siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy sohalarida ham muhim mavzulardan biriga aylangan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ma'lumotlariga ko'ra, yashil iqtisodiyot — bu "barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiruvchi, resurslardan oqilona foydalanuvchi va ijtimoiy tenglikni ta'minlovchi iqtisodiy tizim"dir.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda yashil iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan qator davlat dasturlari va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2019-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" milliy darajadagi ekologik va iqtisodiy islohotlar uchun mustahkam huquqiy hamda tashkiliy asos yaratdi. Ushbu strategiyaga ko'ra, 2030-yilgacha O'zbekistonda ishlab chiqarish tarmoqlarida energiya samaradorligini 30–35 % ga oshirish, CO₂ chiqindilarini 10 % ga kamaytirish, shuningdek, iqtisodiyotda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 25 % ga yetkazish belgilangan. Mazkur jarayonlarda kichik biznes subyektlarining faol ishtirokini ta'minlash va ular uchun qulay iqtisodiy hamda institutsional sharoit yaratish alohida ahamiyat kasb etadi [1].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, kichik biznes iqtisodiyotdagi eng faol va o'zgaruvchan bozor sharoitlariga tez moslasha oladigan sektor hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining 90 % dan ortig'i kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka to'g'ri keladi; ular mamlakat YAIMining 56 % ini va bandlikning 78 % ini ta'minlamoqda. Shunday ekan, yashil iqtisodiyotga samarali o'tishda kichik biznesning rolini kuchaytirish — nafaqat ekologik, balki iqtisodiy barqarorlikni ham mustahkamlovchi omildir.

Mazkur tadqiqotning ob'ekti sifatida kichik biznes subyektlari va ularning yashil iqtisodiyotga moslashuv jarayonlari tanlangan. Predmeti esa ushbu moslashuvni ta'minlovchi iqtisodiy, institutsional, huquqiy va texnologik mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida kichik biznesning imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni kengaytirishning amaliy yo'llarini asoslash hamda takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

Yashil iqtisodiyotning nazariy asoslarini o'rganish;

Kichik biznesning hozirgi holatini iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish;

Yashil iqtisodiyot talablarini hisobga olgan holda kichik biznes uchun yangi imkoniyatlarni aniqlash;

Amaliy faoliyatda uchraydigan muammo va to'siqlarni aniqlash;

Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston uchun mos tavsiyalar ishlab chiqish;

Milliy sharoitda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan institutsional va iqtisodiy mexanizmlarni taklif etish.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda kichik biznesning o'rnini ochib berish, ularning imkoniyatlaridan unumli foydalanish yo'llarini asoslash hamda ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish va kichik biznes tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning uyg'unlashuvi zamonaviy iqtisodiy tizimda muhim ilmiy yo'nalishga aylangan. So'nggi yillarda ushbu masalalar jahon ilm-fanida ham alohida e'tibor markazida turibdi. Mavzuga oid xalqaro va mahalliy tadqiqotlarni tahlil etish orqali yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, kichik biznesning ekologik barqarorlikdagi roli hamda ularni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar tizimli yoritilgan.



Xalqaro miqyosda yashil iqtisodiyot konsepsiyasini chuqur o'rganib chiqqan yetakchi olimlar qatoriga Edward Barbier, Jacqueline McGlade, Nicholas Stern va boshqa tadqiqotchilarni kiritish mumkin. E. Barbier (2011-yil) o'z tadqiqotlarida yashil iqtisodiyotni "atmosfera, suv, yer va biologik resurslardan foydalanishda ekologik chegaralarni buzmaganda holda iqtisodiy o'sishga erishish" deb ta'riflaydi [10]. Uning ilmiy ishlari davlat siyosatining ahamiyatini chuqur yoritadi va xususan, subsidiyalar, soliq imtiyozlari hamda investitsiyaviy qo'llab-quvvatlash vositalari orqali yashil sohalarida kichik biznesni rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

Jacqueline McGlade (UNEP, 2014-yil) o'z tadqiqotlarida yashil iqtisodiy islohotlarning kichik biznes faoliyatiga ta'sirini tahlil qilib, bu jarayonda yuzaga keluvchi texnologik tafovutlar va moliyaviy resurslarga kirishdagi cheklolarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beradi [11]. N. Stern (2007-yil) esa iqlim o'zgarishi va iqtisodiy siyosat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilib, kichik biznesning iqlim siyosatidagi rolini "murakkab, biroq hal qiluvchi omil" sifatida baholaydi [9].

Bundan tashqari, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) hamda Jahon banki tomonidan tayyorlangan hisobotlar va tahliliy hujjatlar kichik biznesning yashil iqtisodiyotga moslashuvdagi imkoniyatlar va istiqbollarni yoritadi [4], [5]. Ularning xulosalariga ko'ra, kichik biznes subyektlari zamonaviy texnologiyalar, ishonchli ma'lumotlar va resurslar bilan ta'minlanganda, ekologik muhofaza tizimida yetakchi kuchga aylanish salohiyatiga ega [8].

O'zbekiston Respublikasida ham yashil iqtisodiyot va kichik biznes masalalariga bo'lgan ilmiy e'tibor yildan yilga ortib bormoqda. Jumladan, professorlar S. I. Islomov, N. A. Alimova, Z. B. Raxmonova va boshqa olimlarning tadqiqotlari ushbu yo'nalishda muhim nazariy va amaliy asoslarni shakllantirgan [12], [13].

S. Islomov o'z ilmiy ishlarida O'zbekistonda kichik biznesni barqaror iqtisodiy rivojlanish yo'liga olib chiqishning institutsional asoslarini tahlil etadi. Uning fikricha, kichik biznes faoliyatini ekologik standartlarga moslashtirish uchun sertifikatlash tizimini takomillashtirish, davlat subsidiyalarini kengaytirish va ekologik menejment mexanizmlarini joriy etish zarur.

N. A. Alimova o'z tadqiqotlarida yashil iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik ta'limi va inson kapitalini rivojlantirishning ustuvorligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ekologik xabardorlikni oshirish hamda yashil texnologiyalar bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biridir.

Shuningdek, Z. B. Raxmonova o'z tahlillarida kichik biznes uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, ekologik faoliyatni qo'llab-quvvatlash va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ushbu yo'nalishdagi davlat siyosatini kuchaytirish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot avvalgi ilmiy ishlardan farqli ravishda, kichik biznesning yashil iqtisodiyotdagi o'rnini faqat nazariy jihatdan emas, balki O'zbekistonning hozirgi iqtisodiy siyosati, davlat strategiyalari va rasmiy statistik ko'rsatkichlari asosida amaliy nuqtai nazardan tahlil etadi. Tadqiqot muallifining yondashuvi shundan iboratki, u xalqaro va milliy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish orqali kichik biznes subyektlari uchun ishlab chiqarishni transformatsiya qilish, yashil loyihalarni moliyalashtirish hamda normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga oid aniq ilmiy-amaliy takliflarni ilgari suradi.

Tadqiqot metodologiyasi analitik, qiyosiy va tizimli yondashuvlarga asoslanadi. Ma'lumotlar bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda xalqaro tashkilotlarning (BMT, Jahon banki, UNEP) ochiq manbalaridagi rasmiy hisobotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, muallif tomonidan empirik kuzatuvlar va mavjud normativ hujjatlar tahlili orqali amaliy natijalar ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, tadqiqotda soha kesimidagi tahlilga ham alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, qishloq xo'jaligi, qurilish, xizmat ko'rsatish, energetika va sanoat tarmoqlarida kichik biznesning yashil iqtisodiyotga o'tish imkoniyatlari bosqichma-bosqich o'rganilgan. Bu yondashuv tadqiqotga komplekslik, amaliy ahamiyat va tizimli yondashuv xususiyatini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'рни strategik ahamiyatga ega bo'lib, u barqaror iqtisodiy rivojlanish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mavjud statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil yakuniga qadar kichik va o'rta biznes (KOB) subyektlari mamlakatda faoliyat yuritayotgan umumiy bizneslarning 90 foizidan ortig'ini tashkil etgan. Ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 51,2 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 0,4 foiz punktga pasaygan. Shu bilan birga, 2021-yilda ushbu ulush 54,9 foizni tashkil etgan.



Bandlik ko'rsatkichlari bo'yicha kichik biznesning hissasi yanada sezilarli. Ular umumiy ish bilan ta'minlangan aholining 75 foizdan ortig'ini qamrab olgan bo'lib, ayrim tarmoqlarda bu ulush 86 foizga yetgan. Xususan, xizmat ko'rsatish, savdo va qishloq xo'jaligi sohalarida kichik biznesning ulushi eng yuqori darajada bo'lib, aynan shu tarmoqlar yashil texnologiyalarni joriy etish uchun katta salohiyatga ega.

So'nggi yillardagi ayrim o'zgarishlar kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi nisbatan barqarorlashganini ko'rsatadi. Bu holatni iqtisodiyotning transformatsion jarayonlari, yangi soliqqa oid imtiyozlar va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan izohlash mumkin [2].

Yashil iqtisodiyot kontekstida kichik biznesning faolligini baholashda energetika sektori alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" ga muvofiq, 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy energiya iste'molidagi ulushi 25 foizga yetkazilishi belgilangan.

2018-yilda qayta tiklanuvchi energiyaning ulushi 10–12 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 24,4 foizga yetgan. Qayta tiklanuvchi energiya quvvati esa 2668 megavattni tashkil etgan. Shundan 1000 MVt quvvat quyosh energiyasi, 500 MVt esa shamol energiyasi hisobiga shakllangan.

Davlat tomonidan ushbu yo'nalishda bojxona imtiyozlari, grantlar va imtiyozli kreditlar shaklida keng ko'lamli qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilgan. Xususan, "Yashil kreditlar" dasturi doirasida 2022-yilda 300 mlrd so'm miqdorida imtiyozli kreditlar kichik korxonalar uchun ajratilgan. Bu tashabbuslar kichik biznesni yashil iqtisodiyot loyihalariga faol jalb etishda ijobiy natijalar bermoqda [3] (1-jadval).

1-jadval. 2021–2024-yillarda O'zbekistonda kichik biznes va yashil iqtisodiyot bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich	2021	2022	2023	2024
Kichik biznesning YAIMdagi ulushi (%)	54.9	51.6	51.2	52.1
Kichik biznes orqali bandlik (%)	86.0	84.0	82.0	83.0
Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)	10.0	14.2	24.4	25.5
Qayta tiklanuvchi energiya quvvati (MVt)	1800	2200	2668	2900
Yashil kreditlar hajmi (mlrd so'm)	100	200	300	400
Jahon banki kreditlari (mln AQSh dollari)	0	50	100	150
EBRD investitsiyalari (mln yevro)	200	350	500	600

Ushbu jadvalda O'zbekiston Respublikasida 2021–2024-yillar davomida kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlikdagi hissasi, qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi o'sish dinamikasi, yashil kreditlar hajmi hamda xalqaro moliyalashtirish manbalari (Jahon banki va EBRD investitsiyalari) bo'yicha real statistik ma'lumotlar aks ettirilgan. Jadval yillik o'zgarishlarni ko'rsatish orqali kichik biznesning yashil iqtisodiyotga integratsiyalashuv darajasini aniqlash va baholash imkonini beradi.

Moliyalashtirish masalasi kichik biznesning yashil iqtisodiyotga faol jalb etilishida asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan ahamiyatli tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Jahon banki tomonidan 2025-yilda O'zbekistonda kichik gidroenergetika loyihalarini rivojlantirish maqsadida 150 million AQSh dollari miqdorida kredit ajratilishi rejalashtirilgan. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD) tomonidan esa 2017–2022-yillar davomida mamlakat iqtisodiyotiga yo'naltirilgan 1,6 milliard yevro investitsiyaning 864 million yevrosi yashil energetika loyihalarini moliyalashtirishga sarflangan [7].

Shuningdek, Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) ham kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida texnik yordam hamda moliyaviy grantlar ajratish orqali faol ishtirok etmoqda. Biroq bu xalqaro dasturlardan kichik korxonalarning bevosita foydalanish darajasini oshirish zarurati saqlanib qolmoqda. Bunga sabab sifatida ayrim byurokratik talablar, loyiha hujjatlarini tayyorlashdagi tajriba yetishmasligi hamda ko'nikma cheklovlarini keltirish mumkin [4], [5]. Shu bilan birga, bu jarayonda kichik biznes vakillarining malaka oshirish va loyihaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmogda.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kichik biznes sektorida yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish bo'yicha aniq ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, ayrim tizimli masalalarni yanada takomillashtirish ehtiyoji mavjud.

Birinchiidan, kichik bizneslarning ekologik faoliyatga moliyaviy kirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Amaldagi kredit va grant dasturlarining bir qismi hali ham yirik sanoat subyektlariga yo'naltirilgan bo'lib, kichik korxonalar uchun moslashtirilgan moliyaviy mexanizmlarni yaratish maqsadga muvofiq.



Ikkinchidan, kichik korxonalar o'rtasida ekologik innovatsiyalarni joriy etish borasida axborot va bilim yetishmasligi mavjud. So'rov natijalariga ko'ra, tadbirkorlarning atigi 22 foizi yashil texnologiyalar haqida to'liq ma'lumotga ega. Shu bois, ekologik ta'lim, konsalting va ma'lumot platformalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish zarur. Xususan, ekologik sertifikatlash, chiqindilarni boshqarish, suv va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha kichik biznes subyektlariga aniq ko'rsatmalar va imtiyozlar belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Amaldagi hujjatlar bu borada takomillashtirish bosqichida bo'lib, ularga amaliy mexanizmlarni qo'shish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi [6].

Shunday qilib, statistik, qiyosiy va empirik tahlillar natijalariga asoslanib aytish mumkinki, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha sezilarli ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Kichik biznes bu jarayonda barqaror rivojlanishning faol ishtirokchisiga aylanib bormoqda. Moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish, texnologik modernizatsiya va axborot ta'minotini yaxshilash orqali ushbu sektorning ekologik samaradorligi va raqobatbardoshligi yanada oshadi. Shu bois, keyingi bo'limda kichik biznesning yashil iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi [8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida kichik biznes sektori nafaqat iqtisodiyotning eng faol va moslashuvchan qismi, balki yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida strategik ahamiyatga ega bo'lgan asosiy ishtirokchi sifatida namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillarda bu yo'nalishda barqaror ijobiy siljishlar kuzatilayotgan bo'lsa-da, mavjud ko'rsatkichlar hali to'liq salohiyatni aks ettirmaydi. Xususan, kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2021-yildagi 54,9 foizdan 2023-yilda 51,2 foizga pasaygani, yashil texnologiyalarni joriy etishdagi ishtirokning yetarli darajada bo'lmagani hamda xalqaro moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklangani bu yo'nalishda tizimli takomillashtirish zarurati mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi 2023-yilda 24,4 foizga yetgani mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish siyosati izchil amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi. Demak, mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish va natijadorlikni oshirish uchun aniq, amaliy hamda tizimli takliflar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo'nalishda kichik biznesning faoliyatini yanada kuchaytirish maqsadida quyidagi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi: birinchidan, moliyaviy resurslarga kirishni yengillashtirish, ya'ni kichik biznes subyektlari uchun alohida "yashil kredit liniyalari"ni joriy etish zarur. Bunday kreditlar imtiyozli foiz stavkalarida, uzoq muddatli va ekologik loyihalarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shuningdek, garovsiz yoki davlat kafolati asosida beriladigan kredit mexanizmlari kichik biznesning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Ikkinchidan, yashil texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish lozim. Kichik biznes ekologik toza texnologiyalarni o'z faoliyatiga integratsiya qilgan taqdirda, davlat tomonidan subsidiya va investitsion grantlar ajratilishi zarur. Bu, ayniqsa, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va xizmat ko'rsatish sohalarida dolzarb hisoblanadi. Uchinchi yo'nalish sifatida ekologik sertifikatlash va standartlarni soddalashtirish muhim o'rin tutadi. Amaldagi ekologik me'yorlar ko'p hollarda yirik korxonalarga mo'ljallangan bo'lib, kichik biznes uchun soddalashtirilgan, ammo barqarorlik tamoyillariga asoslangan alohida sertifikatlash tizimini joriy etish talab etiladi. To'rtinchidan, tadbirkorlar o'rtasida ekologik xabardorlik va bilim almashinuvi darajasini oshirish maqsadida "Yashil biznes markazlari"ni tashkil etish taklif etiladi. Ushbu markazlar orqali kichik biznes vakillariga ekologik innovatsiyalar, energiya tejamkor texnologiyalar va xalqaro grant dasturlari bo'yicha bepul maslahatlar hamda treninglar o'tkazish lozim. Beshinchidan, xalqaro moliyalashtirish manbalarini mahalliy biznesga yo'naltirish bo'yicha milliy mexanizmlar ishlab chiqilishi zarur. Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya institutlari ajratayotgan mablag'larning bevosita kichik biznes loyihalariga yo'naltirilishi, bu jarayonda davlat kafolatlari, ochiq tanlov asosidagi grant tizimlari hamda platformali saralash mexanizmlarining joriy etilishi muhimdir. Shuningdek, yashil texnologiyalarni import qiluvchi kichik korxonalar uchun bojxona bojlari, aksiz va qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bo'yicha imtiyozlar taqdim etilishi, ekologik investitsiyalarni amalga oshirgan korxonalar uchun esa soliq yengilliklari kengaytirilishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, kichik biznesning yashil iqtisodiyotdagi faolligini o'lchovchi indikatorlar tizimini (masalan, energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish darajasi, qayta ishlangan resurslar ulushi) ishlab chiqish zarur. Ushbu indikatorlar asosida davlat siyosatining natijadorligini baholab borish, statistik tahlillarni yangilab turish va qarorlarni empirik ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi kichik biznes uchun keng imkoniyatlar ochmoqda. Ushbu jarayon nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsion o'sishni jadallashtirish va ijtimoiy farovonlikni mustahkamlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik biznesni tizimli qo'llab-quvvatlash, ularni moliyaviy, axborot va texnologik resurslar bilan ta'minlash orqali bu sektorni barqaror iqtisodiy rivojlanishning faol drayveriga aylantirish mumkin.



Yuqorida ilgari surilgan taklif va tavsiyalar ushbu maqsadga xizmat qiladi hamda O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot – 2030" strategiyasini amaliy jihatdan muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. (2024). *Small Business and Private Entrepreneurship in Uzbekistan 2023*. <https://stat.uz>
2. OECD. (2023). *Insights on the Business Climate in Uzbekistan*. OECD Publishing. <https://www.oecd.org>
3. International Energy Agency (IEA). (2023). *Uzbekistan Energy Profile*. <https://www.iea.org/reports/uzbekistan-energy-profile>
4. World Bank. (2025). *Uzbekistan to Enhance Energy Production through Hydropower with World Bank Support*. <https://www.worldbank.org>
5. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). (2023). *Results Snapshot: Uzbekistan*. <https://www.ebrd.com>
6. Ministry of Energy of the Republic of Uzbekistan. (2023). *National Strategy on Renewable Energy 2030*. <https://minenergy.uz>
7. Akhtar, N., Syakir Ishak, M. I., Bhawani, S. A., & Umar, K. (2021). Various natural and anthropogenic factors responsible for water quality degradation: A review. *Water*, 13(19), 2660–2670.
8. UNEP. (2014). *Green Economy and Trade: Trends, Challenges and Opportunities*. United Nations Environment Programme. <https://www.unep.org>
9. Stern, N. (2007). *The Economics of Climate Change: The Stern Review*. Cambridge University Press.
10. Barbier, E. B. (2011). *Capitalizing on Nature: Ecosystems as Natural Assets*. Cambridge University Press.
11. McGlade, J. (2014). *Green Growth and Small Business: Policy Options and Tools*. UNEP Discussion Paper.
12. Alimova, N. A. (2022). "Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarini rivojlantirish omillari." *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 4(58), 215–223.
13. Islomov, S. I. (2021). "O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari." *Milliy iqtisodiyot: muammo va echimlar*, 3(12), 102–109.
14. ILO – International Labour Organization. (2023). *Small Enterprises, Big Opportunities: Supporting SMEs in a Green Economy*. <https://www.ilo.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
